



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKIOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	



NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH



Ismoilov Azamat

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi.
ORCID: 0009-0009-3983-5527

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda kooperatsiya jarayonlarining iqtisodiy ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar asosida kooperatsiyani shakllantiruvchi omillarning ta'siri, ayniqsa o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun xos bo'lgan norasmiy hamkorlik munosabatlarining o'rni chuqur o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, norasmiy kooperatsiyada ishtirok etish ehtimoli, odatda, daromadi nisbatan past, biroq yer maydoni keng bo'lgan xo'jaliklarda yuqoriroq bo'ladi. Bundan tashqari, ortiqcha xarajatlardan oqilona foydalanish, tajriba almashinuvi va birgalikdagi faoliyatga ehtiyoj kabi omillar ushbu jarayonlarni yanada rag'batlantiradi. Fermerlar orasida norasmiy kooperatsiyaga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi rasmiy kooperativlarda xizmatlar spektrini kengaytirish va tashkiliy jarayonlarni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kooperatsiya, ishlab chiqarish, daromad, hosildorlik, deskriptiv.

Abstract. This study provides a comprehensive analysis of the economic significance of cooperative processes. Based on existing scientific literature, the research examines the influence of factors shaping formal and informal cooperation, particularly in economies in transition. The findings indicate that the likelihood of participating in informal cooperation is higher among farms with relatively lower income but larger land areas. Moreover, factors such as rational cost management, experience sharing, and the need for joint activities further encourage participation in informal cooperation. The strong preference for informal cooperation among farmers highlights opportunities to expand service offerings and improve organizational mechanisms within formal cooperatives.

Key words: cooperation, production, income, productivity, descriptive.

Аннотация. В настоящем исследовании представлен всесторонний анализ экономического значения кооперационных процессов. На основе существующей научной литературы подробно изучено влияние факторов, формирующих кооперацию и неформальные кооперационные отношения, особенно актуальные для стран с переходной экономикой. Результаты исследования показывают, что вероятность участия в неформальной кооперации выше в хозяйствах с относительно невысоким доходом, но значительными земельными ресурсами. Кроме того, стремление к рациональному использованию средств, обмену опытом и участию в совместной деятельности способствует развитию кооперационных связей. Более выраженная потребность фермеров в неформальной кооперации свидетельствует о потенциале расширения спектра услуг и совершенствования организационных процессов в формальных кооперативах.

Ключевые слова: кооперация, производство, доход, производительность, описательный.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida kooperatsiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning samarali tashkil etilishi ishlab chiqaruvchilar, jumladan fermerlarning o'zaro hamkorligiga bevosita bog'liqdir. Biroq ayrim hududlarda fermer xo'jaliklari o'rtasida tarqoqlik, o'zaro ishonchning yetarli darajada shakllanmagani hamda



rasmiy hisobot jarayonlari bo'yicha ortiqcha tashvishlarning mavjudligi kooperatsiya munosabatlarining to'liq rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu masalalar bo'yicha jahon ilmiy adabiyotlarida turli yondashuvlar ilgari surilgan.

Kooperatsiyaning haddan tashqari byurokratlashtirilishi va markazlashgan boshqaruv tizimiga bog'lab qo'yilishi sobiq Sovet Ittifoqi davrida kooperativlarning bozor sharoitiga moslasha olmasligiga sabab bo'lganligi ta'kidlanadi.[1] Juliana Lutzning fikriga ko'ra, fermerlar tomonidan kooperatsiyada ishtirok etishning sust bo'lishi ko'proq byurokratik tizimning funksionalligiga ishonch pastligi bilan izohlanadi.[2]

Shu bilan birga, tarixiy tajribada uchragan qiyinchiliklarga qaramay, global miqyosda oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortib borishi, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi va bozorning dinamik xususiyati kooperatsiya tizimlarini yanada takomillashtirish zaruratini kuchaytirgan. Hozirgi davrda barqaror, samarali va adolatli oziq-ovqat tizimini shakllantirish olimlar hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.[3] Asosiy maqsad — aholining sog'lom, arzon, ekologik toza va madaniy xilma-xillikni aks ettiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini ta'minlaydigan mahalliy, mintaqaviy va milliy oziq-ovqat tarmoqlarini rivojlantirishdir. Bu tizimlar demokratik ishtirok, ijtimoiy tenglik va tabiiy-madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlashi lozim.[4]

Fermer xo'jaliklari oldida turgan muhim vazifalardan yana biri — iqlim o'zgarishi ta'sirining kuchayib borayotgan sharoitida samarali moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishdir. Bu jarayonda ular innovatsion yondashuvlarga intilmoqda va ayniqsa ortiqcha byurokratiyadan xoli bo'lgan, moslashuvchan institutsional yordam turlariga ehtiyoj sezmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiat hodisalariga moslashish strategiyasini amalga oshirishda kooperatsiyaning rasmiy hamda norasmiy shakllari bir-birini to'ldiruvchi ijobiy mexanizmlar sifatida xizmat qiladi.[5]

Markaziy Osiyoda rasmiy kooperativlardan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida norasmiy kooperatsiya shakllarining keng tarqalganligi kuzatiladi. Bunday hamkorlik turlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi tajriba almashinuvi, resurslardan oqilona foydalanish va o'zaro ko'makni kuchaytirish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.[6]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy kooperatsiya tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlangan bo'lsa-da, ularning yondashuvlarida umumiy jihatlar mavjud. Azamat Barlybaevning ta'kidlashicha, norasmiy kooperatsiya amaldagi qonunchilik yoki rasmiy munosabatlar bilan to'liq qamrab olinmagan fuqarolar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga oladi.[7]

Kalle Hirvonen esa norasmiy kooperatsiyani fermerlarning rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan, o'zaro manfaat asosida birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishi sifatida ta'riflaydi.[8]

Drozdz va hammualliflarining Litvada kichik fermer xo'jaliklari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida norasmiy hamkorlik "...o'zaro yordam va shaxsiy munosabatlarga tayanadigan, ko'pincha qarindoshlar va qo'shnilar o'rtasida shakllanadigan hamkorlik shakli" sifatida izohlangan. Mualliflarning fikriga ko'ra, bunday norasmiy hamkorlik texnika, agregatlar, urug'lik, suv, o'g'itlar kabi resurslardan jamoaviy foydalanish orqali xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi.[9]

Wolz tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, norasmiy kooperatsiya — bu fermerlar o'rtasida o'zaro yordam va xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan, biroq yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan hamkorlik shaklidir.[10]

O'zbekistonda bug'doy yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari o'rtasidagi kooperatsiya jarayonlari Bobjonov va hammualliflari tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotida rasmiy kooperatsiya davlat tomonidan huquqiy jihatdan tartibga solinadigan, a'zolik shartlari aniq belgilangan kooperativlar sifatida talqin etilgan. Norasmiy kooperatsiya esa tarixiy va an'anaviy tamoyillarga tayangan, resurslardan o'zaro foydalanishga asoslangan hamkorlik shakli sifatida e'tirof etiladi.[11]

Ushbu ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, norasmiy kooperatsiya fermer xo'jaliklari uchun moslashuvchanlik, xarajatlarni optimallashtirish va mahalliy hamjamiyatga tayangan holda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu esa uning rasmiy kooperatsiya shakllarini to'ldiruvchi samarali mexanizm sifatida ahamiyatini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyatning iqtisodiy hayotida norasmiy institutlar va amaliyotlarning rolini aniqlash, shuningdek iqtisodiyotning norasmiy tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish kontekstida ushbu tadqiqotning metodologik asosini institutsional iqtisodiyot ta'limoti tashkil etadi. Tadqiqot iqtisodiy sotsiologiya yondashuvlari, qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tizimli tahlil qilish metodlari hamda mahalliy an'analarga tayangan holda amalga oshirildi.



Muammoni o'rganishda iqtisodiy va sotsiologik tahlil usullari, shuningdek tashqi kuzatuv metodlari qo'llanilib, to'plangan ma'lumotlar deskriptiv tahlil yordamida umumlashtirildi. Tadqiqotning ob'ekti sifatida qishloq hududlarida shakllanadigan norasmiy hamkorlik munosabatlari belgilandi.

Ushbu metodologiya orqali norasmiy kooperatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlash, fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sovet Ittifoqi parchalanganidan beri qariyb 30 yildan ortiq vaqt o'tdi. Ushbu davr mobaynida sobiq ittifoq mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini xususiyashtirish, bozor mexanizmlarini shakllantirish va raqobatbardosh agrar tizimni yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Agrar islohotlarning eng muhim natijalaridan biri sifatida yirik jamoa xo'jaliklari va ishlab chiqarish kooperativlarining o'rniga millionlab kichik oilaviy fermer xo'jaliklarining shakllanishi kuzatildi.

Ushbu jarayon natijasida bir qator tadqiqotchilar qishloq xo'jaligi kooperativlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, ularni raqobatbardoshlikni oshirish, qiymat zanjirlarini samarali muvofiqlashtirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'tarish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan muhim institut sifatida baholaganlar.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlarida rasmiy kooperativlar hali to'liq shakllanmaganini yoki ayrim hollarda ular kutgan natijani bermayotganini ko'rish mumkin. Bu holat esa fermerlarning amaliy faoliyatida ko'proq norasmiy hamkorlik shakllariga — ya'ni qo'shni fermerlar, qarindoshlar yoki yaqin tanishlar bilan o'zaro ko'mak va resurs almashinuvi asosidagi kooperatsiyaga e'tiborning ortishiga sabab bo'lmoqda. Norasmiy hamkorlikning bunday shakllari o'zining moslashuvchanligi, ishonchga asoslanganligi va tezkor tashkil etilishi bilan ajralib turadi.

Masalan, qo'shni Qirg'iziston misolida olib borilgan tadqiqot natijalari fermer xo'jaliklari orasida rasmiy kooperativlarga a'zolik darajasi nisbatan past ekanini (8% fermerlar kooperativ a'zosi) ko'rsatadi. Biroq norasmiy kooperatsiyada ishtirok etish darajasi ancha yuqori — 22 foiz fermerlar turli shakldagi norasmiy hamkorlik faoliyatida qatnashadi.[12] (2-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarish kooperatsiyalariga kirishga ta'sir qiluvchi omillar.[19]

1-jadval. Kooperatsiyaga undovchi omillar tavsifi.[19]


T/R	Kooperatsiyaga undovchi omillar	Tavsif
1.	Ta'lim	Ma'lumotli fermerlarning kooperatsiyaga bo'lgan talabi odatda yuqoriroq bo'ladi. Bu ularning ilg'or texnologiyalar, zamonaviy ishlab chiqarish usullari va bozor tendensiyalaridan yaxshi xabardorligi bilan izohlanadi.
2.	Xarajatlar	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida xarajatlarni optimallashtirish, ortiqcha sarflarni kamaytirish kooperatsiyaga intilishni kuchaytiradi.
3.	Ishchilar	Hashar va o'zaro yordam asosidagi amaliy ishlarni tashkil etishda kooperatsiya fermerlar uchun samarali yordam mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.
4.	Ekin maydoni	Ekin maydoni keng, biroq kapital mablag'lari cheklangan fermer xo'jaliklari uchun kooperatsiya resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratgani sababli talab yuqori bo'ladi.
5.	Jins	Ko'plab adabiyotlarda ayollar boshchiligidagi fermer xo'jaliklari boshqaruvda ba'zi tashkiliy cheklavlarga duch kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu bois ular ishlab chiqarish jarayonini yanada samarali yuritish, tajriba almashish va resurslardan birgalikda foydalanish maqsadida kooperatsiyaga ko'proq ehtiyoj sezadilar.
6.	Maslahat xizmati	Fermerlarning o'zaro tajriba almashishi, innovatsion yondashuvlarni o'rganishi va maslahat xizmatlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kooperatsiyani rivojlantiruvchi muhim omillardan biridir.



Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi kooperativlarining sekin rivojlanishi bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, tarixiy tajriba ta'sirida ko'pchilik fermerlar kooperativ tushunchasini avvalgi ishlab chiqarish kooperativlari bilan bog'lab talqin qiladilar. Natijada zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish kooperativlarining asl mohiyati va to'liq ko'lami haqida yetarlicha tasavvur shakllanmagan bo'lishi mumkin. Bu esa kontseptual chalkashliklarga olib kelib, fermerlarning xizmat ko'rsatish kooperativlari imkoniyatlarini to'liq anglashiga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, mavjud huquqiy baza va davlat siyosati ayrim hollarda qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish kooperativlarini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun yetarlicha qulay shart-sharoit yaratmaydi. Shu bois kooperativlarning tashkiliy jarayonlari yanada takomillashtirilishi zarurati mavjud.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda ro'yxatdan o'tgan kooperativlarning ma'lum qismi amaliy faoliyat yuritmayotgani sababli "nafaol kooperativlar" sifatida tasniflanadi.[12] (2-rasm).



2-rasm . Ishlab chiqarish kooperatsiyalaridan to'suvchi omillar.[19]

2-jadval. Kooperatsiyadan to'suvchi omillar tavsifi.[19]

T/R	Kooperatsiyadan to'suvchi omillar	Tavsif
1	Daromad	Yuqori daromadga ega fermer xo'jaliklari ko'pincha mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lgani sababli norasmiy kooperatsiyaga ehtiyoj nisbatan past bo'lishi mumkin.
3	Aktivlar	Asbob-uskunalar, texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalariga o'zlari ega bo'lgan fermer xo'jaliklari ularni boshqa fermerlar bilan bo'lishishga ehtiyoj sezmasliklari mumkin. Shu bois ular kooperatsiya jarayonida kamroq ishtirok etadilar.
4	Qo'shimcha xizmatlardan foydalanish	Xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan professional xizmatlardan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyati ayrim fermerlar uchun kooperatsiyaga bo'lgan zaruriyatni kamaytirishi mumkin.

Ricciardi tomonidan dunyoning 55 ta mamlakati bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblarni natijasida shuni aniqlangan-ki, 2 gektardan kam yer maydoniga ega bo'lgan xo'jaliklar jahon qishloq xo'jaligi yerlarining atigi 24 foizidan foydalanayotgan bo'lsada, global oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining 30–34 foizini ta'minlaydi.[13] Bu kichik xo'jaliklarning ham jahon oziq-ovqat xavfsizligida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Empirik tadqiqotlarning ko'pchiligi rasmiy kooperativlar misolida amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularda kuzatilgan iqtisodiy afzalliklar norasmiy kooperatsiya shakllariga ham xos ekani ta'kidlanadi. Chunki asosiy ta'sir kanallari — miqyos tejamkorligi, tranzaksiya xarajatlarini birgalikda kamaytirish, axborot almashinuvi va ijtimoiy kapitalga tayanish — huquqiy maqomdan qat'i nazar, guruh bo'lib harakat qilishning umumiy mexanizmlaridir.



Kooperatsiyaning har qanday turi (rasmii yoki norasmii) yangi texnologiyalarni qabul qilish, innovatsiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish jarayonini tezlashtiradi. Masalan, Wossen tomonidan Nigeriya qishloq hududlarida olib borilgan tadqiqotlar kengaytma xizmati va kooperativ a'zolarining zamonaviy texnologiyalarni qabul qilish ehtimolini sezilarli oshirishi, xo'jalik aktivlari qiymatini ko'paytirishi va kambag'allik xavfini kamaytirishini ko'rsatgan.

Nigeriyada mayda pomidor yetishtiruvchi fermerlar bo'yicha o'tkazilgan yana bir tadqiqotda, kooperativga a'zo bo'lgan fermerlarning o'rtacha hosildorligi a'zo bo'lmagan fermerlarnikiga nisbatan qariyb 9,4 baravar yuqori ekani aniqlangan.[14] Bu kooperatsiyaning hosildorlikka bevosita emas, balki resurslardan foydalanish samaradorligi orqali ta'sir qilishi mumkinligini tasdiqlaydi.[15]

Kooperatsiya munosabatlariga kirishgan fermerlar yangi texnika va texnologiyalarni tez o'zlashtirishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Nigeriyada kichik xo'jaliklar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kooperativ a'zolari innovatsion texnologiyalarni qabul qilish darajasini sezilarli oshirishi, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etgan xo'jaliklarda esa hosildorlik va aktivlar qiymatining keskin ortganini ko'rsatadi.[16]

Abdukarimovning tadqiqotida agrar tarmoqdagi kichik ishlab chiqaruvchilar sharoitida norasmii hamkorlik munosabatlari iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U norasmii hamkorlik ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, texnika va innovatsion texnologiyalarga kirishni yaxshilashi, bozor risklarini kamaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda irrigatsiya vositalaridan navbat asosida foydalanish, urug' va o'g'itlarni birgalikda xarid qilish, dalada ishlov berish texnikalarini o'zaro ulashish norasmii kooperatsiyaning samarali shakllari sifatida qayd etiladi.[17] (3-jadval).

3-jadval. Samarqand viloyati fermer xo'jaliklaridan olingan so'rovnomaning umumiy statistikasi.[18]


T/r	Ko'rsatkichlar	
1	Jami tasodifiy tanlab olingan fermer xo'jaliklar soni	367
2	Kooperatsiya munosabatlariga kirganlar	168
3	Kooperatsiya munosabatlariga kirmaganlar	199

Samarqand viloyatining Zarafshon daryosining yuqori tekisliklari atrofida joylashgan jami 367 ta fermer xo'jaligi tasodifiy tanlab olindi. Ushbu fermer xo'jaliklarining 168 tasi kooperatsiya munosabatlariga kirgan, 199 tasi esa kooperatsiya munosabatlarida ishtirok etmagan. Ushbu statistik ma'lumotlar hududda kooperatsiya shakllarining turlicha darajada namoyon bo'layotganini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval. Kooperatsiya turlari.[18]

T/r	Kooperatsiya turlari
1	O'zaro maslahatlashuv
2	Mahsulotlarni birgalikda saqlash yoki saqlash omborlarini ijaraga olish
3	Texnika va agregatlarni o'zaro almashish
4	O'g'itlarni birgalikda xarid qilish

Fermer xo'jaliklarining quyidagi kooperatsiya turlari bo'yicha munosabatlari tahlil qilindi: o'zaro maslahatlashuv, mahsulotlarni birgalikda saqlash yoki saqlash omborlarini ijaraga olish, texnika va agregatlarni o'zaro almashish, shuningdek urug'lik va o'g'itlarni birgalikda xarid qilish. Agar fermer xo'jaligi ushbu kooperatsiya shakllaridan birortasida ishtirok etgan bo'lsa, u kooperatsiya munosabatlariga ega xo'jalik sifatida tasniflandi (3-rasm).



3-rasm. Kooperatsiya munosabatlariga kirgan va kirmagan fermer xo'jaliklarida kartoshka ishlab chiqarishning statistik tahlili.[18]

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, norasmiy kooperatsiya munosabatlariga kirmagan fermer xo'jaliklarida o'rtacha ekin maydoni 2,2 gektar, kartoshka hosildorligi esa 28,4 tonnani tashkil etdi. Kooperatsiya munosabatlariga kirgan fermer xo'jaliklarida esa o'rtacha ekin maydoni 2,6 gektar, hosildorlik esa 31,9 tonnani ko'rsatmoqda.

Dunyo olimlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, xususan kichik fermer xo'jaliklari o'rtasidagi kooperatsiyaning resurslardan birgalikda foydalanish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, texnologiyalarni tezroq o'zlashtirish va axborot almashinuvi orqali hosildorlikni oshirishga xizmat qilishi haqidagi ilmiy xulosalar bizning tadqiqot natijalarimizda ham o'z tasdig'ini topdi.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha Fischer (2011), Wossen et al. (2017), Ma & Abdulai (2017), Ma et al. (2023) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan kooperatsiyaning hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'siri O'zbekiston sharoitida o'rganilgan fermer xo'jaliklarida ham kuzatildi.

Xususan, norasmiy kooperatsiyada ishtirok etgan xo'jaliklarda agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishi, sifatli resurslarga kirishning yaxshilanishi, texnikadan birgalikda foydalanish va o'zaro maslahatlashuv asosida axborot almashinuvi barqaror ishlab chiqarish jarayonini shakllantirgan. Bu omillar hosildorlik darajasining sezilarli oshishiga xizmat qilgan. Natijada xalqaro ilmiy adabiyotlarda ta'riflangan nazariy konsepsiyalar va empirik dalillar mahalliy sharoitda ham o'z tasdig'ini topib, kooperatsiyaning iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi universal mexanizm ekanini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, fermerlarning kooperatsiyada ishtirok etishiga ta'sir qiluvchi omillar va kooperatsiyada qatnashish natijasida yuzaga keladigan afzalliklar haqida yanada batafsil tushunchaga ega bo'lish zarur. Ushbu tadqiqot doirasida biz fermer xo'jaliklarining norasmiy kooperatsiyaga undovchi va undan to'suvchi omillarini, shuningdek kooperatsiya munosabatlariga kirgan va kirmagan xo'jaliklar o'rtasidagi farqlarni tahlil qildik. Bu yondashuv keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim xulosalar shakllantirishga imkon berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot kooperatsiyaning hal qiluvchi omillari hamda kooperatsiya munosabatlariga undovchi sabablarni chuqur o'rgandi. Ayniqsa, norasmiy kooperatsiyaga bo'lgan talabning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fermerlar orasida rasmiy kooperatsiyaga a'zo bo'lishga nisbatan norasmiy kooperatsiyada ishtirok etishga motivatsiya kuchliroq. Bu holat, avvalo, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, agrotexnik tadbirlarni bajarishda o'zaro yordamga ehtiyoj, tajriba almashuvining ahamiyati va ishlab chiqarish



jarayonida bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi omillar bilan izohlanadi. Norasmiy kooperatsiya fermerlarga moslashuvchanlik, ishonchli hamkorlik va amaliy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Boshqa tomondan, yuqori daromadga ega, ishlab chiqarish aktivlari yetarli bo'lgan hamda qo'shimcha xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatiga ega fermer xo'jaliklarida kooperatsiya munosabatlariga ehtiyoj nisbatan past bo'lishi kuzatiladi. Bu esa ularning mavjud resurslar orqali mustaqil faoliyat yurita olish qobiliyati bilan bog'liq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari norasmiy kooperatsiya qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun samaradorlikni oshiruvchi muhim mexanizm ekanini ko'rsatadi. Fermerlar o'rtasidagi o'zaro yordam, resurslardan birgalikda foydalanish va axborot almashinuvi kabi omillar kooperatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bozhkov, O. B., Nikulin, A. M., & Poleshchuk, I. K. (2020). Agricultural cooperation in the northern non-black-earth region: Formal and informal practices. *RUDN Journal of Sociology*, 20(4), 889–904. <https://doi.org/10.22363/2313-2272-2020-20-4-889-904>
2. Lutz, J., Smetschka, B., & Grima, N. (2017). Farmer cooperation as a means for creating local food systems — Potentials and challenges. *Sustainability (Switzerland)*, 9(6). <https://doi.org/10.3390/su9060925>
3. Hinrichs, C. (2014). Transitions to sustainability: A change in thinking about food systems change? *Agriculture and Human Values*, 31, 143–155.
4. Spaargaren, G., Loeber, A., & Oosterveer, P. (2012). *Food Practices in Transition: Changing Food Consumption, Retail and Production in the Age of Reflexive Modernity*. Routledge: London, UK.
5. Abass, R., Mensah, A., & Fosu-Mensah, B. (2018). The role of formal and informal institutions in smallholder agricultural adaptation: The case of Lawra and Nandom districts, Ghana. *West African Journal of Applied Ecology*, 26(Special Issue), 56–72.
6. Hirvonen, K., Machado, E., & A. M. S. (2024). AgEcon Search Working Document. AgEcon Search, 1–26.
7. Barlybaev, A. (2020). Informal cooperation in rural areas: A local context of modern globalism. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2020.10.05.125>
8. Hirvonen, K., Machado, E., & A. M. S. (2024). AgEcon Search Working Document. AgEcon Search, 1–26.
9. Drożdż, J., Vitunskienė, V., & Novickytė, L. (2021). Profile of the small-scale farms willing to cooperate — Evidence from Lithuania. *Agriculture*, 11(11), 1071. <https://doi.org/10.3390/agriculture11111071>
10. Wolz, A., Möllers, J., & Micu, M. M. (2020). Options for agricultural service cooperatives in a postsocialist economy: Evidence from Romania. *Outlook on Agriculture*, 49(1), 57–65. <https://doi.org/10.1177/0030727019861973>
11. Bobjonov, I., & Teuber, R. (2018). Participation in formal and informal cooperation and its effect on productivity in Central Asia: Empirical evidence from Uzbekistan. Paper presented at the 2018 Conference of the International Association of Agricultural Economists, Vancouver, Canada.
12. Lerman, Z. (2013). Cooperative development in Central Asia. FAO Regional Office for Europe and Central Asia. Policy Studies on Rural Transition No. 2013-4.
13. Ricciardi, V., Mehrabi, Z., Wittman, H., James, D., & Ramankutty, N. (2018). How much of the world's food do smallholders produce? *Global Food Security*, 17, 64–72.
14. Akinola, A., Kehinde, A., Tijani, A., Ayanwale, A., Adesiyun, F., Tanimonure, V., Ogunleye, A., & Ojo, T. (2023). Impact of membership in agricultural cooperatives on yield of smallholder tomato farmers in Nigeria. *Environmental and Sustainability Indicators*, 20, 100313. <https://doi.org/10.1016/j.indic.2023.100313>
15. Ahmed, M. H. (2017). The impact of agricultural cooperative membership on technical efficiency and total factor productivity: Evidence from olive farms in Palestine. *New Medit*, 16(3), 15–26.
16. Wossen, T., Abdoulaye, T., Alene, A., Feleke, S., Olanrewaju, A., & Manyong, V. (2017). Impacts of extension access and cooperative membership on technology adoption and household welfare. *Journal of Rural Studies*, 54, 223–233.
17. Abdulkarimov, A. (2019). Qishloq xo'jaligi xo'jaliklarida kooperatsiya munosabatlarining rivojlanish omillari. Toshkent: TDIU.
18. Muallif tomonidan olingan so'rovnoma ma'lumotlari.
19. Adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
